



UDK:159.9(575.1)

Feruza MUTALIPOVA,
Andijon davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: feruza@mail.ru

ADU dotsenti, PhD O.Qodirova taqrizi asosida

SOCIAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS INFLUENCING THE DEVELOPMENT OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN CHILDREN

Annotation

The article analyzes the socio-psychological factors influencing the development of aggressive behavior in children. The causes of aggressive behavior, factors influencing its development, and preventive measures are considered. Mass media and the Internet — content promoting violence can have a negative impact on the consciousness of children. From the point of view of child psychology, the following factors contributing to the development of aggression are identified.

Key words: Aggression, child psychology, social factors, education, environment, personality development.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ АГРЕССИВНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ДЕТЕЙ

Аннотация

В статье анализируются социально-психологические факторы, влияющие на формирование агрессивного поведения у детей. Рассмотрены причины агрессивного поведения, факторы, влияющие на его развитие, и меры профилактики. Средства массовой информации и Интернет — контент, пропагандирующий насилие, может оказывать негативное влияние на сознание детей. С точки зрения детской психологии выделены следующие факторы, способствующие развитию агрессии.

Ключевые слова: Агрессия, детская психология, социальные факторы, воспитание, среда, развитие личности.

BOLALAR AGRESSIV XULQNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOIIY PSIXOLOGIK OMILLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada bolalar orasida kuzatiladigan agressiv xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilinadi. Agressiv xulqning kelib chiqish sabablari, uning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar hamda oldini olish choralari ko'rib chiqiladi. Ommaviy axborot vositalari va internet — zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontent bolalarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bolalar psixologiyasi nuqtayi nazaridan, agressivlikning rivojlanishiga quyidagi omillari yoriyilgan.

Kalit so'zlar: Agressivlik, bolalar psixologiyasi, ijtimoiy omillar, tarbiya, muhit, shaxs rivojlanishi.

Kirish. Bolalar orasida kuzatiladigan tajovuzkor xulq-atvor ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan jiddiy muammolardan biri hisoblanadi va uning yuzaga kelish sabablari turlicha bo'lishi mumkin. Ushbu maqolada bolalar orasida tajovuzkor xulq-atvorning shakllanishiga olib keluvchi asosiy ijtimoiy va psixologik omillar tahlil qilinadi. Ta'lim muassasalarida tajovuzkorlik holatlarining namoyon bo'lishi o'qituvchilar, ota-onalar, psixologlar, shifokorlar va keng jamoatchilikda katta tashvish uyg'otmoqda, chunki tajovuzkor bolalar soni so'nggi yillarda sezilarli darajada ortib bormoqda [1;5]. Maktab o'quvchilarining ayrim toifasida tajovuzkorlik barqaror shaxsiy sifatga aylanib, noqulay ijtimoiy sharoitlarda antisotsial xatti-harakatlarning kuchayishiga va natijada jamiyatda ijtimoiy keskinlikning oshishiga sabab bo'lmoqda. Bolalar va o'smirlarda tajovuzning namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, avvalo, ijtimoiy-madaniy sohadagi muammolar bilan bevosita bog'liqdir. Bunga oilaviy tarbiyaning inqirozi, maktabning bolalarning nevropsixologik holatiga yetarlicha e'tibor qaratmasligi, nutq madaniyatining umumiy darajada pasayishi, ommaviy axborot vositalarida zo'ravonlikning keng targ'ib qilinishi, axborot, kino va video sanoatining salbiy ta'siri, aloqa va muloqot mexanizmlarining zaiflashuvi va boshqa omillar kiradi [2;7-8]. Oila bolaning shaxs sifatida shakllanishida birlamchi ijtimoiylashuv makoni bo'lib, bolaning xulq-atvori, jumladan, tajovuzkorlik darajasi ham aynan oiladagi tarbiya uslublari va munosabatlar tizimi bilan chambarchas bog'liq. Birinchidan, oilada zo'ravonlik va qattiqqo'llik mavjud bo'lsa, bola uchun tajovuzkor xulq-atvor hayotiy meyor sifatida shakllanishi mumkin. Jismoniy yoki ruhiy bosim ostida ulg'aygan bolalar atrofdagilarga nisbatan ham shafqatsizlik va qattiqqo'llikni namoyon etishi ehtimoli yuqori bo'ladi. Ikkinchidan, ota-onaning e'tiborsizligi va hissiy befarqligi bolalarda salbiy hissiy bo'shliq va psixologik beqarorlikni keltirib chiqaradi. Natijada, bola

o'zining ichki noroziligini tajovuzkor xatti-harakatlar orqali ifoda etishga moyil bo'lib qoladi. Shuningdek, oiladagi mojarolar — ya'ni ota-onalar o'rtasidagi doimiy nizolar va janjallar bolaning psixologik muvozanatini izdan chiqarib, uning stress va tashvishlarini tajovuz orqali "chiqarishiga" sabab bo'lishi mumkin.

Bola tarbiyasida ijtimoiy muhitning, ayniqsa maktab va unga yaqin muhitning ta'siri ham muhim ahamiyatga ega. Maktab va pedagogik muhit bolaning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishida asosiy o'rin tutadi. O'qituvchilar va sinfdoshlar bilan bo'lgan sog'lom yoki ziddiyatli munosabatlar bolaning tajovuzkorlik darajasini oshirishi yoki kamaytirishi mumkin. Bundan tashqari, do'stlar guruhi va jamoa bosimi ham muhim omil hisoblanadi. Bola tajovuzkorlikni rag'batlantiruvchi muhit yoki guruhda bo'lsa, bu uning shaxsiy xulq-atvoriga bevosita ta'sir ko'rsatib, tajovuzni odatiy model sifatida qabul qilishga olib keladi. Keng ijtimoiy kontekstda esa, ijtimoiy adolatsizlik va tengsizlik kabi omillar ham bolalarda norozilik kayfiyati va tajovuzkorlikni kuchaytiruvchi vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Xususan, kam ta'minlangan yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalar farzandlarida bunday holat tez-tez uchraydi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsiya vositalari ham bolalarda tajovuzkor xatti-harakatlarni shakllantirishda muhim omil sanaladi. Zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi filmlar, multfilmlar va teleko'rsatuvlar, shuningdek, jangovar va zo'ravonlikka asoslangan kompyuter o'yinlari bolalarda tajovuzkorlikni meyor sifatida qabul qilishga olib keladi. Bundan tashqari, so'nggi yillarda yoshlar orasida keng tarqalgan ijtimoiy tarmoqlardagi kiberbulling va onlayn tahdidlar bolalarning ruhiy holatiga salbiy ta'sir o'tkazib, ularda agressiv javob reaksiyalarini kuchaytirishi mumkin.

Madaniy meyorlar va tarbiya tizimi — Ba'zi jamiyatlarda zo'ravonlik va jismoniy jazo odatiy hol sifatida qaralishi,

bolalarda ham shunday xatti-harakatlarga moyillikni oshiradi. Bundan tashqari, bolalar orasida agressiv xulqni keltirib chiqaruvchi asosiy ijtimoiy omillar quyidagilar hisoblanadi:

- Oila muhitining ta'siri – Zo'ravonlikka asoslangan yoki haddan tashqari qat'iy tarbiya usullari bolalarda tajovuzkorlikni kuchaytirishi mumkin.

- Atrof-muhit va ijtimoiy muhit – Bolalar yashaydigan hududdagi jinoyatchilik darajasi, maktab va bog'cha muhitining salbiy jihatlari bolaning ruhiy holatiga ta'sir etadi.

- Ommaviy axborot vositalari va internet – Zo'ravonlik va agressiyani targ'ib qiluvchi kontent bolalarning ongiga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularni tajovuzkorlikka undashi mumkin.

Shaxsiy xususiyatlar – Asabiylik, impulsivlik va hissiy muvozanatsizlik kabi individual xususiyatlar bolalarda agressiv xulq-atvorni rivojlantirishga sabab bo'lishi mumkin. O'zini ifoda eta olmaslik – Bolalar o'z his-tuyg'ularini to'g'ri va sog'lom tarzda ifodalashni bilmagan hollarda, bu ularni tajovuzkor xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin. Emotsional va psixologik zo'riqish – Stress, qo'rquv va xavotir kabi salbiy his-tuyg'ular bolalarda agressivlikni kuchaytirishi mumkin.

Bolalar orasida agressivlikni kamaytirish va uning oldini olish uchun quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi tavsiya etiladi: Sog'lom tarbiya muhitini yaratish - ota-onalar va pedagoglar tomonidan mehribon va qo'llab-quvvatlovchi muhit shakllantirilishi, muloqot va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish – Bolalar o'z his-tuyg'ularini boshqarish, ijobiy muloqot qilish va muammolarni tinch yo'l bilan hal etishni o'rganishlari, jismoniy va psixologik faoliyatlarini rag'batlantirish – Sport, san'at va ijodiy mashg'ulotlar orqali bolalar energiyasini ijobiy va samarali yo'nalishga yo'naltirish mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ko'pgina tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tajovuzkor xatti-harakatlarni butunlay yo'q qilish imkonsizdir. Psixologik tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, insonlarda qisman tajovuzkor, qisman libidinal bo'lgan obyektlarga nisbatan yuqori darajada tabaqalashtirilgan munosabatlar mavjud bo'lib, bu holat inson hayotida tug'ilishdan boshlab namoyon bo'la boshlaydi. Agressiya har bir bolaning ruhiy hayotida uchraydigan tabiiy va odatiy hodisa hisoblanadi [9]. Xavotir va g'azab, hattoki nafrat ham ko'pincha sevgi kabi bir xil insonda namoyon bo'ladi. Natijada esa ichki ziddiyatlar va og'riqli to'qnashuvlar muqarrar holga aylanadi. Sevimli insonga nisbatan yuzaga kelgan g'azab va dushmanlik hissiyotlari ko'pincha ong ostida bostiriladi, boshqa sohalarga ko'chiriladi yoki boshqa insonlarga yo'naltiriladi.

Ta'riflangan tendensiyalar bolaning xavfsizlik hissi shakllanishida muhim o'rin tutadi. Bola o'zini xavfsiz va himoyalangan deb his qilganda, ushbu ehtiyojlar barqaror tarzda qondiriladi. Aks holda, ya'ni bu ehtiyojlarni qondirish imkoni bo'lmaganda, agressiv xatti-harakatlar kuchayadi va oxir-oqibat buzg'unchi xatti-harakatlarga olib kelishi mumkin [10].

Olimlarning fikricha, tajovuz insonning hayotiy manfaatlariga tahdid soladigan, genetik jihatdan shakllangan himoya reaksiyasi hisoblanadi. Bu esa uning biologik asosini o'zgartirish mumkin emasligini anglatadi.

Agressivlikni shakllantiruvchi omillar mohiyatini tahlil qilganda, ularni quyidagi ikki katta guruhga ajratish mumkin:

1. Individual-shaxsiy omillar – shaxsning tug'ma yoki orttirilgan psixologik va emotsional xususiyatlari (masalan, temperament, stressga chidamlilik darajasi, empatiya darajasi va boshqalar).

2. Tashqi ijtimoiy-psixologik omillar – bola yashaydigan muhit, tarbiya tizimi, ijtimoiy va madaniy qadriyatlar, oila va maktabdagi munosabatlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va internet orqali beriladigan axborotlar.

Ijtimoiy ta'lim nazariyasining asosiy g'oyalariga tayanib, amerikalik sotsiologlar va ijtimoiy psixologlar K. Jeklin, R. Jan, E. Makkobi, J. Uayt va boshqalar dushmanlik va tajovuzkor xatti-harakatlarning tabiatiga nimalar ta'sir qiladi, degan savolga javob topishga urinib, subyektni jinsiy xususiyatlari farqlariga alohida

e'tibor qaratganlar [3]. Xuddi shu yondashuv doirasida P. Bell, E. Donnershteyn, E. O'Nil, R. Rojers kabi olimlar esa shaxsning irqiy kelib chiqishi shaxslararo tajovuzkorlikning namoyon bo'lishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tadqiq qilganlar.

Bundan tashqari, agressivlikning genetik komponentlari va ularning inson xulq-atvoriga ta'siri M.V. Alifimova va V.I. Trubnikov kabi tadqiqotchilar tomonidan ham o'rganilgan va ular tajovuzkor xatti-harakatlarda genlarning muhim o'rin tutishini ta'kidlaganlar [1].

Agressiyani keltirib chiqaruvchi tashqi omillar haqida so'z borganda, avvalo inson muhitidagi salbiy omillar nazarda tutiladi. Bular qatoriga shovqin, suv va havoning ifloslanishi, haroratning keskin o'zgarishi, haddan tashqari gavjumlik, shaxsiy makonga tajovuz kabi omillar kiradi. Ushbu masalalar R. Baron, D. Zilmann, K. Loo, J. Karlsmitt, S. Myuller, J. Fridman, H. Holden va boshqa olimlar tomonidan chuqur tadqiq etilgan.

Shuningdek, spirtli ichimliklar va giyohvand moddalar iste'moli kabi omillarning agressivlik darajasiga ta'siri ham ijtimoiy psixologik tadqiqotlarda muhim o'rin egallaydi. Bu borada A. Armenti, R. Boyatjiz, H. Kappel, J. Karpenter, D. Kapasso, K. Leonard va S. Teylor kabi tadqiqotchilar ishlarini alohida ta'kidlash mumkin [5].

O'smirlarning guruhga mansubligi, ommaviy axborot vositalarining ta'siri, filmlar va kompyuter o'yinlaridagi zo'ravonlik, ijtimoiy tarmoqlardagi xatti-harakatlar kabi muhim ijtimoiy omillar turli tadqiqotlar doirasida o'rganilgan [6]. Biroq, o'tkazilgan tadqiqotlar ushbu omillar va o'smirlarning agressiv xatti-harakati o'rtasida bevosita bog'liqlikni to'liq aniqlamagan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, asosiy farqlovchi omil – bu kattalarning ushbu omillarga munosabati, ularning o'z farzandlariga axborotni qanday yetkazishi va vaziyatni tushuntirish qobiliyatidir.

Shunday qilib, tarbiyaning sifati va oilaviy munosabatlar uslubi, ya'ni ijtimoiy omillar birlamchi ahamiyatga ega ekani aniqlangan.

Xulq-atvorni tartibga soluvchi ko'plab ijtimoiy normalar bolalar va o'smirlar tomonidan atrofda, ular uchun muhim bo'lgan insonlarga taqlid qilish orqali shakllanadi. A. Bandura bolalarning ota-onalariga qaramligining muhimligini ta'kidlaydi, bu esa ularda kattalarga taqlid qilish istagini kuchaytiradi. Aksincha, qaramlik kuchsiz yoki yo'q bo'lganda, bolalarda dushmanlik va tajovuzkorlik hissiyotlari kuchayishi, shu bilan birga, bu hissiyotlarni nazorat qilish qobiliyati cheklanishi mumkin [2].

Banduraning qaramlik konsepsiyasi onaning chaqaloqqa g'amxo'rlik qilish orqali unga "ikkilamchi mustahkamlash" qiymatini berishiga asoslanadi. YA'ni, ona borligi va uning mehribonligi bolaning o'zini xavfsiz va qulay his qilishi uchun yetarli omil hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning belgilangan maqsadiga muvofiq, biz ko'rsatilgan muammolarni hal qilish uchun quyidagi usullarni tanladik:

1) "Qo'llar" testi - tajovuzkor xatti-harakatlarni bashorat qilishga qaratilgan usul;

2) Bass-Darki so'rovnoma - shaxsning shakllari va dushmanlik reaksiyalarining xilma-xilligini aniqlash;

3) tajovuzni diagnostika qilishning yordamchi usuli sifatida turli mavzulardagi mini-insholar;

4) og'zaki tajovuzga javoblarni o'rganish uchun ishlatiladigan tugallanmagan iboralar usuli;

5) kuzatish usuli;

6) "Statistika" kompyuter dasturi yordamida ma'lumotlarni statistik qayta ishlash.

Tadqiqot No 12- o'rta umumta'lim maktabida o'tkazildi.

Tahlil va natijalar. Quyida 25 ta o'quvchining Bass-Darki so'rovnoma asosida empirik tahlili berilgan. Ushbu tahlilda har bir agressiya shaklining o'rtacha, minimal va maksimal qiymatlari hisoblab chiqildi: 25 ta o'quvchining empirik tahlili.

Ko'rsatkich	O'rtacha (%)	Minimal (%)	Maksimal (%)
Jismoniy agressiya	20.19	18.52	21.74
Bilvosita	14.54	12.50	16.44

agressiya			
Salbiylik	11.02	8.93	12.50
Jahllilik	15.96	13.70	17.39
Shubhalanish	11.86	8.70	13.04
Hujumkorlik	9.66	8.33	13.04
Dushmanlik	16.78	15.52	18.18
Umumiy agressiya	161.56	144.00	176.00

Empirik tahlil natijalari

Ushbu jadvalda 25 ta o'quvchining Bass-Darki so'rovnoma asosida agressiya shakllari bo'yicha o'rtacha, minimal va maksimal ko'rsatkichlar berilgan. Endi har bir ko'rsatkichni alohida tahlil keltiramiz: 1. Jismoniy agressiya; O'rtacha: 20.19% , Minimal: 18.52%, Maksimal: 21.74% Jismoniy agressiya eng yuqori agressiya shakllaridan biri bo'lib, o'quvchilarning aksariyati ushbu xatti-harakatni o'zida namoyon qilgan. Maksimal va minimal qiymatlar orasidagi farq nisbatan kichik, bu esa jismoniy agressiyaning barqaror ekanligini ko'rsatadi. 2. Bilvosita agressiya; O'rtacha: 14.54%, Minimal: 12.50%, Maksimal: 16.44%, Bilvosita agressiya ham sezilarli darajada namoyon bo'lib, o'quvchilarning ijtimoiy muhitda bevosita tajovuz ko'rsatmagan holda, lekin bilvosita tarzda bosim o'tkazishi mumkinligini ko'rsatmoqda. 3. Salbiylik; O'rtacha: 11.02%, Minimal: 8.93%, Maksimal: 12.50%, Salbiylik boshqa agressiya shakllariga qaraganda nisbatan pastroq. O'quvchilarning ba'zilar bu ko'rsatkich bo'yicha ancha past natija ko'rsatgan, bu esa ularning salbiy fikr va hissiyotlarni ochiq ifodalashga moyilligi kamligini bildiradi. 4. Jahllilik; O'rtacha: 15.96%, Minimal: 13.70%, Maksimal: 17.39%, Jahllilik yuqori bo'lib, o'quvchilarning ko'pchiligi tez g'azablanishi yoki sabrsizlikni namoyon qilishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu ko'rsatkichning yuqoriligi muomala va muloqotda sabr va ijobiy muhit yaratish muhimligini bildiradi. 5. Shubhalanish; O'rtacha: 11.86%, Minimal: 8.70%, Maksimal: 13.04%, O'quvchilarning ba'zilar boshqalarga nisbatan ishonchsizlik yoki shubha bilan qaraydi. Biroq, bu ko'rsatkich boshqa agressiya shakllariga qaraganda pastroq. 6. Hujumkorlik O'rtacha: 9.66%, Minimal: 8.33%, Maksimal: 13.04%, Hujumkorlik eng past agressiya shakllaridan biri bo'lib, aksariyat o'quvchilar o'zini bevosita tajovuzkor tutmaydi. 7. Dushmanlik O'rtacha: 16.78%, Minimal: 15.52%, Maksimal: 18.18%, Dushmanlik yuqori ko'rsatkichga ega bo'lib, ba'zi o'quvchilar atrofdagilarga nisbatan salbiy munosabatda bo'lishi yoki muayyan shaxs yoki guruhlariga

nisbatan dushmanlik hissini saqlashi mumkin. 8. Umumiy agressiya; O'rtacha: 161.56, Minimal: 144.00, Maksimal: 176.00 , O'quvchilarning umumiy agressiya darajasi nisbatan yuqori. Ba'zi o'quvchilar agressiyaning turli shakllarida ko'proq namoyon bo'lsa, boshqalari nisbatan pastroq agressiya darajasiga ega. - Eng yuqori ko'rsatkichlar: Jismoniy agressiya (20.19%), Dushmanlik(16.78%), Jahllilik (15.96%) - Eng past ko'rsatkichlar: Hujumkorlik (9.66%), Salbiylik (11.02%) - Agressiya shakllari o'quvchilar orasida turlicha namoyon bo'lsa ham, umumiy xulosa shuki, jismoniy agressiya va dushmanlik eng ko'p uchraydigan shakllar bo'lib, shubhalanish va hujumkorlik esa nisbatan past darajada kuzatilgan.

Xulosa va takliflar. Bolalarda aggressiv xulq-atvorning shakllanishiga ijtimoiy-psixologik omillar katta ta'sir ko'rsatadi. Oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, ommaviy axborot vositalari, psixologik omillar va madaniy qadriyatlar bolaning tajovuzkorlik darajasini belgilovchi asosiy omillardir. Shu sababli, bolalarda aggressivlikning oldini olish uchun oilaviy tarbiyaga e'tibor berish, ijtimoiy muhitni yaxshilash, ommaviy axborot vositalari ta'sirini tartibga solish va psixologik yordam ko'rsatish juda muhimdir. Bolalar aggressivligi ijtimoiy-psixologik omillarning murakkab ta'siri natijasida shakllanadi. Oilaviy tarbiya, maktab muhiti, do'stlar ta'siri, ommaviy axborot vositalari, va shaxsiy psixologik xususiyatlar bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Agressiyaning kamaytirish va oldini olish uchun: Oilada ijobiy muhit yaratish, bolalarga mehr va e'tibor berish kerak. Maktab va jamiyatda sog'lom ijtimoiy munosabatlarni shakllantirish lozim. Bolalarga muammolarni agressiyasiz hal qilish ko'nikmalarini o'rgatish samarali usullardan biridir. OAV va internetdagi zo'ravonlikni cheklash, bolalar tarbiyasiga salbiy ta'sir qiluvchi kontentdan himoya qilish lozim. To'g'ri yondashuvlar orqali bolalar aggressivligining oldini olish, ularning ruhiy va ijtimoiy sog'lom rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

ADABIYOTLAR

1. Алфимова М.В., Трубников В.И. Психогенетика агрессивности//Вопросы психологии. 2000. № 6.
2. Бандура Альберт, Уолтерс Ричард / Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений. Пер. с англ. Ю.Брянцевой и Б. Красовского. – М.: Апрель Пресс, Изд-во ЭКСМО –Пресс, 1999. – 512 с. (Серия «Психология. XX век»).
3. Берковец Л. Агрессия: причины, последствия и контроль. – СПб.: прайм-ЕВРОЗНАК, 2002.-512 с.(Секреты психологии).
4. Боулби Дж. Привязанность. — М.: Гардарики, 2003 Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Prentice Hall.
5. Dodge, K. A. (2006). Translational Science in Preventing Youth Violence. Current Directions in Psychological Science.
6. Olweus, D. (1993). Bullying at School: What We Know and What We Can Do. Wiley-Blackwell.480 с.